

JADIDLARNING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI

Eshmurodova O‘g‘ilshod Siddiq qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, biz bilgan va bilmagan jadidchilarimizning butun hayoti davomida kelajak avlodning o‘qishi, erkin hayot kechirishi uchun qilgan harakatlari, ulardan qolgan ilmiy-badiiy asarlariga va ularning mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Jadid, Fitrat, Behbudiy, Nozimaxonim, Ismoil Gaspirinskiy, Abdulla Rahmat, Qodiriy.

19-asrning 80-yillarida Ismoil Gaspirali rahbarligida jadidchilik harakati vujudga keldi. “Jadid” arabcha “yangi” ma’nosini bildiradi. Jadidchilik harakatlarining boshlanishiga sabab, Turkistonning Yevropa mamlakatlaridan orqada qolib ketishi, aholining hayot tarzi ayanhli ahvoldaligi, Islom dini va shariatining oyoq osti qilinishi, jaholat va qoloqlikning oshib borishiga qarshi o‘z zamonasining ilg‘or ziyolilari erk, ozodlik uchun kurasha boshladi. Jadidchilik faoliyati avval maktab, maorifdan, so‘ng matbuat, san‘at va siyosatga o‘tgan. Ismoil Gaspirinskiy nomi “Tarjimon” gazetasi bilan birga yodga olinadi. Gazetada turkiy xalqlarning umumiy adabiy tilini yaratishga, til birligiga alohida e’tibor bergan. “Millatimizning ikki asosi bor: til birligi, din birligi. Millatning o‘zligini yo‘qotish uchun shularning bittasi buzilishi kifoya” deydi Gaspirinskiy¹. Bu so‘zlar uning shiori bo‘lsa ham ajab emas. Jadidchilik harakati “Turkiston jadidchiligi”, “Buxoro jadidchiligi”, “Xiva jadidchiligi” guruhlariga bo‘linib ish boshlaydi. Ba’zi jadidlarning hayoti va ijodi, asarlarini maktab adabiyoti darsligida, o‘quv qo‘llanmalarda ko‘rish mumkin. Jumladan: Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Tavallo, Abdulhamid Cho‘lpon, Is‘hoqxon Ibrat, Sadridin Ayniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Muhammadsharif So‘fizoda, Sirojiddin Sidqiy kabilar. Ammo ulardan tashqari Naimjon Afandi, Mulla Faxriddin, Akbarali Boytursunov, Serkaboy Oqoyev, Solihabegim Holiqiy, Nozimaxonim, Vadud Maxmud kabi jadidlarimizdan ba’zilarining hayoti va ijodi adabiyotlarga kiritilmagan bo‘lsa, boshqalari haqida ma’lumot yetib kelmagan. Jadidlarning bevosita rahbarligida Toshkentda “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Xurshid”, “Sadoyi Turkiston”, Samarqandda

¹ Qosimov B., Yusupov Sh., va b., Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti, Tosh., - 2004

“Samarqand”, “Oyna”, “Hurriyat”, “Shu’lai Inqilob”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Bolalar yo‘ldoshi”, “Tayoq majmuasi”, davriy “Sharq”, “Yosh kuch”, “Zarafshon”, Buxoroda “Turon”, “Buxoroi Sharif”, Qo‘qonda “Sadoyi Farg‘ona” kabi o‘nlab gazeta va jurnallar nashr etila boshlandi.² Jadidchilar mustaqillikka kurash sari qadam bosarkan, bu oson bo‘lmashligi va bu yo‘lda jonini qurbon qilishi amri mahol ekanligini bilib turar, shunday bo‘lsada o‘limga tik qarab kurashdi.

Ismoil Gaspinskiy jadidchilik g‘oyalarini kengroq yoyish uchun “Tarjimon” “Millat”, “Bolalar olami”, “Uyg‘onish” gazetalari, “Ayollar olami” jurnali, “Xa-xa-xa!” hajviy haftanomasini chiqardi. Jadid maktablari uchun “Xo‘jai sibyon”, “Bolalar muallimi” darsligini, “Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh” kitobini yozdi. Ismoil Gaspinskiyning Bog‘chasaroydan Toshkentga bo‘lgan sayohatidagi maktublari jamlanib “Turkiston sayohatlari” nomi ostida keltiriladi. Maktublarida o‘sha davr o‘qitish tizimi, bozor iqtisodiyoti, shahar va ko‘cha ahvoli, aholini turmush tarzi haqida qisqacha ma‘lumotlar beradi. Jumladan, Gurjistonga kelgan yozuvchi maktubiga shunday satrlarni bitadi: “Farangistonni ko‘rib fikr etdim, Gurjistonni ko‘rib shukr etdim”. Buni maktubda yorqin dalillar bilan izohlab ham bergan. Farangistondagi o‘zgarishlarni ko‘rgan yozuvchi Qrim shahrining ulardan orqada ekanligini o‘ylab qayg‘uradi, ammo katta Gurjiston aholisining yer-suvga boy bo‘la turib, faqat makkajo‘xori ekishini, boshqa narsalarni kamdan-kam hollarda yetishtirishini ko‘rgan yozuvchi hayratlanadi va Qrim ahlining yashash sharoitiga shukr qiladi. Undan so‘ng Boku shahri haqida “...Bokudagi shkolalar – rus maktablari ham diqqatga sazovordir. Muallimlar bunda ham ruscha, ham musulmoncha dars beradirlar. Tahsil jadid usulicha qurilgani bois bir-ikki yilda ruscha va musulmoncha lozim ma‘lumot egallanadir” - deya o‘qitish tizimi haqida ma‘lumot keltirib o‘tadi. Yozuvchi shaharlarni kezarkan ba‘zilarida yangiliklarni ko‘rib xursand bo‘lsa, ba‘zi shaharlarda aholi hali ham qoloq, yangiliklardan bexabar ekanligidan ranjiydi. “Buxoroning tiniq, bulutsiz osmonida porlagan yulduzlarni tomosha qilib, “Ming bir kecha” ertaklarini eslab, mas‘udona uyquga tolardim.” Buxorodagi o‘qitish tizimi eski usuldaligini ko‘rib, muallimga o‘zining “Xo‘jayi sibyon” nomli darsligini hadya etadi. Muallim kitobni ko‘rgach uning forsiy tilda emasligi, forsiy tildagi manba o‘qituvchi uchun darsda yozish va o‘qish uchun har taraflama qulayligi haqida taklif bildiradi. Ammo yozuvchi turkcha alifbosi barchasidan yaxshiligi, undan foydalanuvchilar kamayib ketayotganligini aytib o‘tadi. O‘qituvchining o‘zi forsiy tilda dars beraversa tabiiyki unga boshqa tillarda dars o‘tish biroz mushkul. Shoir Buxorodan so‘ng Samarqand tomon yo‘l oladi. “Mashhur imorat va obidalari shulardir: Shohizinda, Bibixonim maqbaralari, Tillakori,

² <https://www.bukhari.uz>

Sherdor, Ulug‘bek madrasalari va Temur maqbarasidir. Bularning har biri bir ajoyibotdir. Binolarning qurilishi va go‘zalligi barcha sayyohlarni hayron etadir. Ammo na foydaki, bari xarobalik ichidadir va xaroblikka yuz tutgandir!” “Toshkentda bu kabi ziyolilar, zodagonlar, musulima xotinlar fikr-u qarashlarini o‘rganib, ongimda ularning turmushiga oid anchagina yaxshi tushunchalar, ko‘nglimda ezgu hiss-u tuyg‘ular paydo bo‘ldi. Islom adabi ila tarbiyalangan, zamonaviy ma‘rifatda kamolga erishgan musulimalar dunyoning eng yaxshi onalari bo‘lishi shubhasizdir.” Yozuvchi shaharlarni kezar ekan “Tarjimon” gazetasiga fikr bildirgan ziyolilar bilan tanishib, qo‘llab-quvvatlagani uchun barchasiga rahmat aytib chiqadi. Yozuvchi Toshkentdan Samarqandga qaytadi va maktublar shu so‘zlar bilan tugallanadi. “Qrimlik ojiz bir yozuvchiga ko‘rsatilgan mundayin iltifoti shohonadan butun qirimliklar mamnun va xursand bo‘lishlari shubhasizdir.”

Bu kabi asarlarni, maktublarni boshqa jadidlar hayoti va ijodida ham ko‘rish mumkin. Jadidlar ichida she‘rlari, g‘azallari bilan millatni uyg‘onishga chorlagan ajoyib ijod namunalari mavjud. Bulardan biri o‘zbek ayollaridan chiqqan birinchi jurnalist-publist, shoira Nozimaxonim. Shoira milliy ozodlik uchun qilinayotgan harakatlarni qo‘llab-quvvatlab, xotin-qizlarning jamiyatdagi roli va o‘rni haqida asarlar yozgan. “Insonga qancha erk darkor?”, “Ilm va maorif borasida bir-ikki so‘z”, “Xotinlar huquqiga oid” kabi asarlarida jaholat, zulm poymol etgan o‘zbek ayolining milliy, insoniy haq-huquqlarini talab qilib chiqqan. Shoira o‘z ijod namunalari barcha ayollarning dardlarini, oh-u faryodlarini olib chiqadi. Hayotda o‘z o‘rni bo‘lmagan ayollarning boshiga ne-ne sinovlar tushmaydi. Buni quyidagi g‘azalda ham ko‘rish mumkin.

Ichmadim sharbat hayotim chashmasidin bir qonib,

Davr jabridin, netaykim, jism ila jonim yonib.

Xalq dermishlar meni bu yurt aro «ko‘b fozila»,

Lek yurmushman hamisha darbadar, majruh bo‘lib.

Shoira hayot lazzatini totmayotgan ayollarni, ularning qanchalik ayanchli ahvolda qolganlarini kuylarkan, buni “bir davrning ayanchli sitamlari” deb keltiradi. Xalqning “ko‘p fozila” deya keltirgan ta‘rifiga aslida “darbadar va majruhman” deb javob beradi. Nozimaxonim jismoniy tomondan jarohat olmagan bo‘lsa-da, uning qalbi, yuragi majruh edi. Bu davrda minglab “Nozimaxonim”larni uchratish va ular birining onasi, birining opa-singlisi yana birining ayoli edi. Ayollarning o‘qib-o‘rganishi, erkaklardan beruxsat ish qilishi, ko‘chaga chiqishi, hattoki o‘z turmush o‘rtog‘ini ham erkaklar tomonidan ya‘ni otasi, akasi tomonidan hal qilingan. Ayollarning bu kabi ayanchli ahvollarini “Kecha va Kunduz”, “Mehrobdan Chayon” romani, “Daxshat” hikoyasi

kabi turli janrlarda yaqqol ko‘rish mumkin. Dunyodan baxtni qidirdim, ammo hech qayerdan topa olmadim deya, umrining o‘tib ketayotgan go‘zal davrlarini “sarsari devonadek sarg‘ayib” deya tilga oladi.

Men desam adl-u diyonat lafzini hokimlarga,
Quvdilar, Majnun debon, hech yerda qo‘ymay bu g‘arib.

Ko‘rinib turibdiki, arz-dod qilishdan umuman foyda bo‘lmagan. Hokimlarning yoniga adolat, intizom so‘rab borganlarni quvib chiqargandagi holatini Majnunga qiyoslagan. Negaki, turli vaziyatda bo‘lmasin ularning dardi bitta edi. Majnun o‘z sevgisi o‘tida qanchalik yonib-kuygan bo‘lsa, Nozimaxonimning ham erkka talpinishi bundan kam emas. Hayotga kelib bir kun ham kulmasdan, umr bo‘yi xor-u zor bo‘lib dunyodan o‘tib ketganlar qancha. G‘azal so‘nggini shoira xalq ayollariga savol tarzida tugatadi.

Hech odam bormukin Nozima yanglig‘ daxr aro,
Ichmagan sharbat hayoti chashmasidin bir qonib.

Shoira shunday sermazmun ijodi bilan ayollarni erkinlikka, balki o‘qishga, ilmga ham chorlaydi.

O‘qubsan, Nozima, rusi zaborin, senga xislatdur,
Zaboni bezabon bo‘lmoq, biling, bu koni ofatdur.

Nozimaxonimning “O‘qing rus zaborini” nomli ijodida o‘zining misolida boshqalarga pand-nasihati bermoqda. “Zabon” so‘zning ma‘nosi “til”, “bezabon” so‘zining ma‘nosi esa “tilsiz”, “so‘zlashdan mahrum” ma‘nolarini anglatadi. Rus zaborini bilgani uning bir fazilati, boshqa ayollardan afzalligi. Ammo bila turib undan foydalanmaslik, tili bo‘lib o‘zini “gung”likka solgan odam bu halokatdir. O‘zi bilgan narsalarni el bilan, insonlar bilan bo‘lishmaslik bu haqiqatdan ham ofat. Insonlar orasida, ayollar orasida bezabonlar ko‘p, ularni qo‘rqmaslikka, erk uchun, ozodlik uchun kurashga chorlagan. Shoiraning el-u yurt uchun, ayollar manfaati uchun yonib-kuygani, ilm olishga bo‘lgan shijoati orqali o‘z maqsadiga biroz bo‘lsa-da yetadi.

Jadidlarimizdan yana biri, Shahid Ehson Mulla o‘g‘lidan kelajak avlod uchun chuqur ma‘noga ega bo‘lgan hikmatli so‘zlari yodgorlik sifatida kelmoqda. Hikmatli so‘zlar ham o‘sha davr, kelajak avlodlarni ilmga, o‘qib-o‘rganishga chorlaydi.

Eng issiq, qizg‘in va qumli bir cho‘lda tirikchilik qiladig‘on kishiga suv, salqin havo qancha kerakli bo‘lsa bu kungi millatlar orasida yashayturg‘on qavmlar uchun maktab va maorif ham shunchalik kerakdir.

Bu hikmatli so‘zlardan nafaqat, ma‘naviy ozuqa balki, so‘z qo‘llash sa‘ati, qiyoslash san‘atlarini ham o‘rganish mumkin. Maktab va maorif o‘sha davr uchun ham, hozirgi davr uchun ham juda muhim. O‘qish, unga bo‘lgan talab hech qachon

yo‘q bo‘lmasligi kerak. Yozuvchi ta‘kidlayotgandek, cho‘ldagi insonga suv qanchalik kerak bo‘lsa, maktab va maorif biz uchun ham shu darajada muhimligini juda chiroyli qilib yoritib bergan. Yana bir hikmatli so‘zida:

Bir mintaqaning o‘t va yo‘g‘ochlari boshqa mintaqada ko‘karolmaganidek masha’ri (shariat) vijdonla munosabati bo‘lmagan, yangi taomillar ham ko‘pincha yashamas. Bu taomillar yashasa xam taqlid mahsulidir. Taqlid esa taraqqiydan uzoq va uning ziddidir. Bir qadam ilgari ketolmay yerinda saymoq (turg‘unlik) demakdir. Taraqqiy va takomil degan narsa moziyga suyanmok tarixiy poyalarni bosib yuqorilamoq bilan bo‘lur. Yanglish anglashilmasun, ijtimoiy hodisalarda “hatlama” yo‘qdur demoqchi emasmiz... Balki tarix va moziy, hayot va holimizga bir shakl bermak uchun bir vositadir demakchimiz, - deya ta‘kidlagan.

Bu hikmatli so‘zlarning tag zaminida birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” so‘zlari yotadi. Shariat, din vijdonla bo‘lmasa, uning qalbdagi umri qisqa bo‘ladi. Taraqqiyot, yuksalish “moziyga suyanmok” ya’ni “o‘tmishga suyanish” undan ibrat olish, ular qilgan xatolarni qilmaslik, qilgan yaxshiliklarini esa bardavom qilish kelajak avlodlar ishi. Keltirilgan to‘rt qator gapda minglab ma’nolar, ibratlar bor. Ammo ularning barini qog‘ozga joylash imkonsiz.

Jadidlarimizdan yana Abdulla Rahmat „Iymon bilan ishlash — e’tiqodga bog‘liq“, „Savodsizlikka olov yoqaylik“, „O‘quvchilarning dunyoga qarashi tarbiyachiga bog‘liq“ kabi yoshlar tarbiyasiga bag‘ishlangan maqolalari, Abdulla Badriy “Juvonmarg”, “Ahmoq”, “O‘gay ota”, “Boyvachcha” pyesalari, G‘ozi Yunusning “Kasalimiz va aning dorusi”, “Al ulamou vorisat ul anbiyo”, “Hurriyatmi yoki istibdod?”, “Yerlilashtirish tevaragidagi lo‘ttibozliklar”, “Din nomidan ig‘vo tarqatuvchilar”, “Siyosat maydonlarida” kabi maqolalari, “Luqmoni hakim”, “Yo‘lbosar Alim”, “Jaholat qurboni”, “Islomiyat uyi”, “Farzand duosi”, “Savodsizlik balosi”, “Zahhoki moron” pyesa, Sa’idali Usmonxo‘ja “Buloqlar”, “Ovropo”, “Yurak” kabi she’rlari bilan o‘z davrining buyuk namoyondalaridan bo‘lgan. Bu kabi ilmga chanqoq, yangilik tarafdori bo‘lib avlodlarni ilmga chorlovchi jadidlarimiz judayam ko‘p. Ularning hayoti va ijodi bilan tanishish, asarlarni tahlil qilib o‘rganish, ulardan ma’naviy va ma’rifiy ozuqa olish har bir avlodning vazifasidir.

Xulosa qilib aytganda, “Jadidchilar” deb atagan insonlarimiz bugungi kunda shunday taraqqiyotga erishib, erkin va ozod, to‘kin hayot kechirishimizning asl sababchilaridir. Ulardan qolgan meros esa har bir farzandning boyligi, obro‘si hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimov B., Yusupov Sh., va b., Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti, Tosh., - 2004
2. Gʻaspirali I., Turkiston Sayohatlari
3. Ergashovich S., Jadidchilik harakati. 2020.
4. Mamiraliyev, Q. (2025). Folklorism In the Poetry of The Independence Period. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 3(2), 100–105. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/45025>
5. <https://www.bukhari.uz>
6. <https://ziyouz.com>
7. <https://kh-davron.uz>
8. <https://oyina.uz>
9. <https://jadidlar.uz>